

**O‘ZBEK MILLIY CHOLG‘ULARINI TAKOMILLASHTIRISH
JARAYONLARI
(doira cholg‘usi misolida)**

Ismoil Rustamov

Farg‘ona davlat universiteti

Vokal va cholg‘u ijrochiligi kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek milliy cholg‘ularini takomillashtirish jarayonlari borasida fikr yuritiladi. Shuningdek qadim davrlardan to bugungi kunga qadar doira cholg‘usi ijrochiligi xronologiyasiga nazar solingan.

***Kalit so‘zlar:** Doira cholg‘usi, o‘zbek xalq milliy cholg‘ulari, ijrochilik mahorati, ustoz-shogird an‘anasi, mahalliy uslublari, doira usullari.*

**ПРОЦЕСС СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЗБЕКСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ
ИНСТРУМЕНТОВ**

(на примере инструмента доира)

Исмаил Рустамов

преподаватель кафедры

Вокально-инструментального исполнения

Ферганского государственного университета

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается процесс совершенствования узбекских национальных музыкальных инструментов. Также была рассмотрена хронология игры на инструменте доира с древнейших времен до наших дней.

***Ключевые слова:** Инструмент доира, народные инструменты узбекского народа, исполнительское мастерство, мастер-ученик, местные стили, приемы на инструменте доира.*

**THE PROCESS OF IMPROVING UZBEK NATIONAL INSTRUMENTS (on
the example of the doira instrument)**

Ismail Rustamov

Teacher of the department of Vocal and instrumental performance

Ferghana State University

ABSTRACT

This article discusses the process of improving Uzbek national musical instruments. The chronology of playing the doira instrument from ancient times to the present day was also considered.

Key words: *Doira instrument, folk instruments of the Uzbek people, performance skills, master-student, local styles, techniques on the doira instrument.*

KIRISH

Insonning ma'naviy kamolotida, uning ruhan poklanishida, asosiy mezonlardan biri, bu – mumtoz musiqa san'atidir. Shodon damlarda ham, boshga tashvish tushganda ham dilbar navoni tinglab, orom topishimizning boisi aslida shu. Asrlar davomida shakllanib, sayqal topgan, xalqimiz ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan mumtoz ashulalar, ularning targ'ibotchilari bo'lmish ulug' xofizlarning ijodi ezgulikka qaratilgani tufayli, xamisha e'tiborga va e'tirofga munosibdir. Ulug' san'atkorlarning ijodiy merosini o'rganib, uni yanada keng targ'ib etish, yosh avlod qalbiga singdirish mas'uliyatli va sharaflil vazifa bo'lib qolaveradi.

Xalq orasida “Yaratgan tomonidan xushsado, go'zal ovoz, mahoratomuz ijro ato etilgan kishi yarim shohdur” degan hikmat yuradi. Xushsado ovozli xonanda va sozandalarni butun xalq ardoqlaydi, uyining to'rida mehmon qilib, uning ijrosidan baxramand bo'ladi. “Yarim shohlik”ning hurmat-izzati ham shudir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi dorulomon kunlar farovonlik xukm surayotgan damlardir. Shu bois endigina san'at yo'liga qadam qo'yayotgan yoshlar ashula aytish bilan birga o'zbek san'ati, xonandalar, ularning ovoz imkoniyatlari, hayotidagi ibratli voqealar haqida ma'lumot olishsa foydadan xoli bo'lmaydi. Shu o'rinda O'zbekiston xalq xofizi Fattohxon Mamadalievning 2001 y. “Milliy musiqa ijrochiligi masalalari” risolasi ayni muddaodir. Risolada atoqli xonanda va bastakor, O'zbekiston xalq xofizi, professor Fattohxon Mamadalievning milliy musiqa ijrochiligi masalalariga bag'ishlab yozgan maqolalaridan iborat. Ijodkor muallif asosan mumtoz xonandalik va sozandalikka, ayrim cholg'ularga tegishli qimmatli tarixiy ma'lumotlarni keltirar ekan, ularning hozirgi zamon rivojlanish yo'llari yuzasidan teran ilmiy mushoxadalar yuritgan. “Milliy musiqa ijrochiligi masalalari” risolasi soha mutaxassislari, musiqa hamda ixtisoslashtirilgan san'at maktablari va o'quvchilari, shuningdek, barcha qiziquvchilar uchun tavsiya etilgan.

“O'zbek xalq cholg'ulari orasida doyra qadim davrlardan xalqimiz orasida keng ommalashib kelgan milliy cholg'ularidan biri hisoblanadi. Hozirgi zamon O'zbekiston musiqa madaniyati o'ta murakkab jarayon sifatida gavdalanadi. Uning serqatlam bisotidan o'zbek milliy zarbli cholg'ulari uchun yaratilgan musiqalar

alohida o‘rin tutadi. Qadim-qadimlardan yetib kelgan bu san‘at, XX asr mobaynida tubdan o‘zgara boshladi, yangi izlanishlar bilan boyitildi, yangi ijrochilik yo‘nalishlarining vujudga kelishiga asos soldi.

XX asr boshlarida O‘zbekiston musiqa madaniyatida muhim tarixiy voqealar sodir bo‘ldi. Milliy an‘analariga tayangan og‘zaki kasbiy musiqa ijrochiligi bilan bir qatorda nota yozuviga asoslangan kompozitorlik ijodiyoti shakllana boshlandi. 1938-yilda O‘zbekiston davlat filarmoniyasi qoshida nota bilan ijro etiladigan o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri tuzildi. Bu jamoaning repertuarini tuzish va kengaytirish maqsadida ko‘pgina O‘zbek kompozitorlari nota yozuvi ko‘rinishidagi musiqa yaratishni boshladilar[1].

Ushbu asarlarda o‘zbek milliy zarbli cholg‘ulari – doyra, nog‘ora, safoil va boshqalar bilan bir qatorda Yevropa urma zarbli cholg‘ular – litavra, tarelka, treugolnik, kichik baraban, katta baraban, ksilofon, marimba, vibrafon, kolokolchik kabi cholg‘ular partituraga kiritiladigan bo‘ldi. Bu tajriba hozirgi vaqtgacha ham davom etmoqda. Ya‘ni, urma zarbli cholg‘ular tarkibida o‘zbek milliy va Yevropa cholg‘ulari birgalikda ishtirok etilishi albatta ko‘zda tutilgan. Ularning birlashishi mantiqiy mohiyati shundan iboratki, o‘zbek urma va zarbli cholg‘ular kuylarga milliy tus baxshida etsada, Yevropa cholg‘ular erkin fakturaviy va gomofon-garmonik tafakkurini kashf etishga xizmat qilmoqda”[2].

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

XIX asr oxirlari, XX asr boshlarida xalq orasida amalda bo‘lgan usullarni mohir ustoz Usta Olim Komilov asta-sekin yig‘ib borgan. Har bir usullarni yig‘ish bilan birga bir-biriga mutanosiblarini qo‘shib, turkum qilib chalishni odat qilgan. Zamona zayli bilan, o‘zbek raqs san‘ati amaliyoti boshlanadi. Yakka raqsni doyra usullari negizida ijro etish yo‘nalishi paydo bo‘ladi. Bu esa usullarning harakatlar yordamida jonlanishi, doyraning yakkanavoz sifatida shakllanishi uchun katta imkoniyat edi. Usta Olim Kornilov xalq usullarining eng saralarini yig‘ib, bir qator asarlar (doyra usullari turkumlarini) yaratdi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O‘zbekistonda doyra ijrochiligining yangi uslubi, ya‘ni uning yakka soz sifatida qo‘llanishi rivojlana boshladi. Bu ishga 1947-yilda, Toshkentdagi sobiq pioner va o‘quvchilar saroyi (hozirgi Respublika o‘quvchilari va o‘smir yoshlari ijodiyot markazi) qoshida doirachi bolalar to‘garagi tashkil etish bilan ilk bor qadam qo‘yildi. Ularning faoliyati boy o‘zbek usullarini o‘rganish bilan bir qatorda, estrada sahnalarida bitta yoki bir nechta (to‘rttagacha) doyrada yakkanavoz bo‘lib ijro etish uslublarini ham o‘rganishga asoslangan edi. Doirachi bolalar to‘garagini bitirganlar keyinchalik egallagan ijrochilik mahoratlari tufayli o‘zbek musiqa san‘atini dunyoning turli mamlakatlarida namoyish etib,

olqishlarga sazovor bo'ldilar. Qator doyrachilarning ijrochilik san'ati yuksak mukofotlar bilan taqdirlangan. Ular orasida O'zbekiston xalq artistlari va Davlat mukofoti sovrindorlari, xalqaro va Respublika tanlovlari, jahon festivallarining bir necha g'oliblari bor. Jumladan: Qahramon Dadayev, Tal'at Sayfitdinov, Odil Kamolxo'jaev, aka-uka Dilmurod, Xolmurod, Elmurod Islomovlar, Husan Nosirov, Ilxom Ikromov kabi san'at namoyandalari el-yurt e'tiborini qozonganlar.

Cholg'u yo'llaridagi yoki maqom asarlaridagi doira zarblari uch vohaniki bir biriga o'xshasada ularning ayrim usullari biriniki ikkinchisida, ikkinchisi uchinchisida uchramaydi. Garchand uchrasa ham, juda kam misollarda, ayrimlari esa mutlaqo yo'q.

Masalan Farg'ona vodiysi Toshkentga xos asarlarda Nasr zarbi, Mo'g'ilcha zarbi, shuningdek, Tasnif, Saqil, Savt zanblari uchramaydi. Har holda biz buni ko'p ustozlar bilan bo'lgan deyarli ellik yillik muloqotlar moboynda uchratmadik.

Buxoro Samarqand vohasida esa "yakka zarb", "engil zarb" (masalan, "Yolg'iz" zarbi), "Nog'ora Bayot" zarbi, "Asiriy zarbi", "Miskin zarb" deb nomlanuvchi usullarni ko'rmaymiz.

Xorazmda ham o'zining zarblari mazkur ikki vohadan farqlanishi aniq sezilib turadi. Unda "Nasr" zarbi bor bo'lsa ham, Buxoroning "Nasr" zarbidan bum baklarining joyi almashib turadi. "Suvora" usul zarbi va raqslardagi zarblar Farg'ona vodiysida ham, Buxor Samarqandda ham uchramaydi. Aynan "Suvora" zarbi Xorazmga xos bo'lgani hammaga ayon.

Mana shu zarblarning xilma xilligi ham milliy san'atimiz boyligidan dalolat beradi. Ammo keyingi davrlarda hamma vohalar markazlashtirilganligi, o'zaro ta'sirlar kuchaygani tufayli doira zarblari ham aralashib ketdi.

Hozirgi zamonda O'zbekiston bastakorlari tomonidan har xil usullarda rang barang kuy, qo'shiq va ashulalar yaratilmoqda. Bu esa an'anaviy hamda zamonaviy musiqa ijodkorligining turlarini, shakl va uslublarini rivojlantirishga hizmat qilishi tabiiy. O'z navbatida respublikamizda milliy va mahalliy musiqiy mushtaraklik negizida kechayotgan jo'shqin jarayon so'nggi yillarda yanada jadallashayotganligining yorqin dalolatidir.

Fattohxon Mamadalievning ko'p yillar davomida erishgan tajriba va malakalari yig'indisi asosida yaratilgan ushbu maqolalar to'plami sho'rolar davrida milliy san'atimizning ko'plab yo'qolib ketgan maktab namunalari o'zbek xalqiga bebaho topilma bo'lib hizmat qilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Xalq hofizi ustoz san'atkor F.Mamadalievning bevaqt o'limiga qaramasdan professor Ravshan Yunusov risolani muxlislar qo'liga to'la to'kiz yetib kelishida xalol va mas'uliyat bilan yondoshgani taqsimga loiq. F.Mamadalievning "Milliy musiqa ijrochiligiga

doir”[3] qimmatbaho ma’lumotlari hozirgi kunda yo‘qolib ketgan milliy san’atimiz unsurlarini tiklashda muhim poydevor bo‘lib hizmat qiladi.

Ushbu risolaga kiritilgan mujazgina maqolalar o‘zining mazmundorligi jihatidan mutahassislarni ham, milliy musiqamiz ixlosmandlarini ham befarq qoldirmaydi. Katta hayotiy va ijodiy yo‘lni bosib o‘tgan, ko‘p milliy musqamiz darg‘alarini, zabardast ustozlarni ko‘rgan, ular bilan muntazam yaqin muloqotda bo‘lgan, o‘gitlarini puxta o‘zlashtirgan F.Mamadaliev o‘zining yuqori ilmiy malakasini ham namoish qildi. Zero u ilmiy jixatdan chuqur idrok etilgan, amaliy asoslarga ega bir nechta o‘ta dolzarb mavzu va masalalarni baholi qudrat yoritishga muvafaq bo‘ldi.

XULOSA

Bugungi kunga qadar doira ijrochilik maktabi bir qator mualliflik uslublar bilan boyidi. Ijrochilik amaliyotida bu uslublarni yaratgan ustoz sozandalar elga tanildilar. Mavjud usullarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda Ushbu san’atni zamonamizga mos holda talqin qilish, o‘zining bor kuchini sarf qilib rivojlantirishi lozim. O‘tgan davrda yashab ijod etgan san’atkorlar o‘zlaridan oldingi san’atkorlar malini puxta o‘rganishga katta ahamiyat berganlar, o‘zlashtirgan bilimlarini esa, keyingi avlod shogirdlariga o‘tkazganlar. Bu faqat doyrachilarning emas, balki barcha o‘zbek san’ati namoyomdalarining uslubi bo‘lmish “Ustoz-shogirt” an’anasidir. Mazkur nuqtayi nazardan kelib chiqib, kelajak avlodning o‘tmishga xos tarzda kamol topishi, bu barkamol avlod tarbiyasidagi asosiy vazifarlardan desak, mubolag‘a bo‘lmas.

Bugungi davrda taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining yangidan-yangi namunalari joriy etilayotgan bir paytda o‘zbek milliy zarblarini turli cholg‘ular, elektron vositalar va mavjud cholg‘u sozlarda tarannum etish imkoniyatlari ochilmoqda. O‘zbek usullarini zamonaviy texnika vositasida doyraning jonli sadosini tarannum etish yosh shijoatkor san’atkorlarimizning iodiy munosabatiga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. R. Samadov (2022). DOIRA CHOLG‘USINING QADIM VA ZAMONAVIY HAYOTDAGI IJRO TALQINI. Science and innovation, 1 (C6), 251-253. doi: 10.5281/zenodo.7190596
2. Sayfitdinov T. Doira ijrochiligi san’ati. Oq‘uv qo‘llanma. «FAYLASUFLAR». - Toshkent: 2020.
3. Фаттоххон Мамадалиев “Миллий муסיқа ижрочиличи” рисола. Т.,2001й.
4. Насритдинова, Мадина Нуруллаевна (2022). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСЦЕЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С ПАТОЛОГИЕЙ, СВЯЗАННЫХ С ГИПОКСИИ, ПОСРЕДСТВОМ ИСКУССТВ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 385-393.

5. Насритдинова, М. Н. (2022). МУСИҚА ИНСОНИЯТГА НИМА УЧУН КЕРАК?. *Science and innovation*, 1(Special Issue 2), 577-580.
6. Nasritdinova, M. (2023). ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI AXLOQIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 199-204.
7. Насритдинова, М. (2023). ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOLAJAK MUSIQA TA'LIMI OQITUVCHILARINING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(4), 241-246.
8. Насритдинова, М. Н. (2023). УСТОЗ МУХТОР АШРАФИЙ МАҲОРАТЛИ ПЕДАГОГ СИЙМОСИДА ШОГИРДЛАРИ ХОТИРАСИДА МАНГУ БАРҲАЁТ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(2), 303-305.
9. Nurullayevna, N. M. Turg'unboyeva Muhlis.(2022). THE ROLE OF PEDAGOGICAL ACTIVITY IN CREATING A NEW UZBEKISTAN ENLIGHTENED SOCIETY. *BEST SCIENTIFIC RESEARCH*, 1 (1), 238-241.
10. Jo'Rayev Xamidjon, & Madina Nasritdinova (2022). DOIRA CHOLG'USIDA IJRO MAHORATINI YUKSALTIRISH (BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI MISOLIDA). *Science and innovation*, 1 (C2), 26-28. doi: 10.5281/zenodo.663646
11. Мамазияев, Х. А. Ў. М., & ТАДРИЖИ, М. Ч. SAI. 2022.№ С3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ma-om-sanatida-musi-a-chol-ularining-tadrizhi> (дата обращения: 05.10. 2022).
12. Мамазияев, Хуршиджон Аъзамжон Ўғли (2022). МАҚОМ ИЖРОЧИЛИГИДА ЧОЛҒУЛАРНИНГ АЛОМАТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10-2), 429-435.
13. Х. Mamaziyaev (2022). ТЎЙ МАРОСИМ ҚЎШИҚЛАРИ (НИКОҲ ТЎЙ МАРОСИМИ ҚЎШИҚЛАРИ ТАҲЛИЛИ). *Science and innovation*, 1 (C6), 190-199. doi: 10.5281/zenodo.7178247
14. A. Abdusattorov (2022). DIMITRIY DIMITRIYEVICH SHOSTAKOVICH IJODIDA POLIFONIYA. *Science and innovation*, 1 (B6), 430-432. doi: 10.5281/zenodo.7164517
15. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdusalil Abduvalio'g'li, A., & Behzod Asqaralio'g'li, T.

(2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9092-9100.

16. Абдисатторов, А. А. Ў. (2022). БАСТАКОРЛИК ИЖОДИДА МУСИҚА ФОЛҶКЛОРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 602-605.

17. Abdusattorov, A. About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(11), 28-30.

18. Murodova, D. (2021). Scientific And Theoretical Aspects of Musical Thinking. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(1), 196-199.

19. Murodova, D. (2021). THE CONCEPT OF MUSICAL THINKING AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(05), 245-250.

20. Nasretdinova, M., Rustamov, I., & Karimov, O. (2022). MUSIQA SAN'ATINING HOZIRGI KUNDAGI O'RNI. *Scientific progress*, 3(2), 841-845.

21. Rustamov, I. (2022). DOYRA CHOLG'USIDA IJROCHILIK MAHORATINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN MASHQLAR MOHIYATI. *Science and innovation*, 1(B6), 456-460.

22. Rustamov, I. (2022). The Place of Doira Instrument in Uzbek National Art. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 5, 74-77.

23. Rustamov, I. (2023). DOIRA CHOLG 'U IJROCHILIGIDA IJROVIY USULLARNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 74-79.